

**MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTIDA KASBIY TALIMNI
RIVOJLANTIRISH VA TA'LIMY METODLAR ORQALI TA'LIM
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

*Samarqand viloyati Nurobod
tumani 27-DMTT direktori
Mavlonova Uljanoy Iskandar qizi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida (MTT) kasbiy ta'limni rivojlantirishning mazmuni, ahamiyati hamda pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish orqali ta'lim samaradorligini yuksaltirish masalalari yoritilgan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются содержание и важность развития профессионального образования в дошкольном образовательном учреждении, а также вопросы повышения эффективности обучения путем повышения профессиональной компетентности педагогов.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, kasbiy ta'lim, kasbiy kompetensiya, pedagogik mahorat, metodik ishlar, interfaol metodlar, o'yin texnologiyasi, STEAM, AKT, ta'lim samaradorligi.

Ключевые слова: дошкольное образование, профессиональное образование, профессиональная компетентность, педагогические навыки, методическая работа, интерактивные методы, игровые технологии, STEAM, ИКТ, эффективность образования.

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlar ko'lamida maktabgacha ta'lim dasturlar ham chetda qolmagan, yillar davomida ushbu tashkilotlardagi bolalarning kelajagini porloq bo'lishini o'ylagan holda ularga ta'lim beruvchi pedagoglarning mahoratini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. Bugungi kunda pedagoglarning ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha ko'plab sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Qolaversa, pedagoglarga o'z bilimlarini oshirishda, uslublarini keng ko'lamda rivojlantirishda qo'shimcha ta'lim berish bosqichlari ham tashkil etilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritib kelayotgan pedagoglarning deyarli barchalari tashkilot rahbarlari tomonidan doimiy nazorat qilinadi, sababi shundaki, ularning kasb mahoratini ko'rsatishi oddiy jarayon emas, balki, juda muhim bosqichlardan biri bo'lganligidadir.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti (MTT) — bolani har tomonlama rivojlantirish, ijtimoiy hayotga tayyorlash va kelajakdagi ta'lim poydevorini yaratishda eng muhim bo'g'in hisoblanadi. Bugungi kunda MTTlarda ta'lim sifati, tarbiyachilar mahorati va

boshqaruv samaradorligi bevosita **kasbiy ta'limni rivojlantirish** bilan chambarchas bog'liq.

Kasbiy ta'lim — bu pedagog xodimlarning o'z kasbiga oid bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini muntazam oshirib borishi, zamonaviy metodlarni o'rganishi, innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishi jarayonidir. MTTda kasbiy ta'limni rivojlantirish natijasida tarbiyachilar bilimli, ijodkor, media va raqamli savodxon bo'lib yetishadi hamda bolalarga sifatli ta'lim-tarbiya berish imkoniyati ortadi.

Kasbiy ta'limni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari

➤ **Malaka oshirish va qayta tayyorlash**-Pedagog xodimlarning malakasini oshirish kurslari, seminar-treninglar, onlayn vebinarlar va amaliy mashg'ulotlar kasbiy rivojlanishning muhim shakllaridan biridir. Bu jarayon pedagoglarning nazariy bilimlarini yangilash va amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

➤ **Metodik ishlarni tizimli yo'lga qo'yish**-Metodik birlashmalar, ochiq mashg'ulotlar, pedagogik kengashlar, tahlil va monitoring ishlari tarbiyachilar faoliyatini takomillashtirishga yordam beradi. Metodik ishlar orqali pedagoglar o'zaro tajriba almashadi, ilg'or usullarni o'rganadi va amaliyotga tatbiq etadi.

➤ **Mentorlik (ustoz-shogird) tizimini rivojlantirish**-Ustoz-shogird tizimi yosh mutaxassislarning kasbiy moslashuvini tezlashtiradi. Tajribali tarbiyachilar tomonidan amaliy yordam ko'rsatilishi natijasida yosh pedagoglarning ish faoliyati samaradorligi oshadi.

➤ **Raqamli kompetensiyani rivojlantirish**-Zamonaviy ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish tarbiyachining kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Elektron resurslar, multimedia vositalari, interaktiv platformalar ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishga imkon yaratadi.

Kasbiy kompetentlilik mutaxassislar tomonidan bilim, ko'nikma, malaka hamda shaxsiy sifatlarni egallanishi, pedagogik faoliyatga ijodiy, izlanuvchan yondoshishni talab etadi. Bundan tashqari, metodistdan o'zida zarur yo'nalishlar bo'yicha integrativ bilimlar hamda harakatlarni o'zlashtirishni, kasbiy faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishni ham qamrab oladi. Metodist ta'lim mazmunini belgilovchi ta'lim tamoyillarini va mezonlarini bilishi, ularga amal qilishi, ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni hisobga olishi va ularni ta'lim jarayoniga uyg'unlashtira olishi nazarda tutiladi. Faoliyat bo'yicha ish rejalarini tuzish, nazorat qilish, amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash qobiliyatiga ega bolishi kerak. Pedagogik faoliyatda uslubchining kasbiy kompetentlilik darajasi to'g'ridan-to'g'ri jamiyatning ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarni metodik jihatdan kuzatish va tahlil etish hamda nazoratda baholash

me'yorlariga qo'yilgan talablar maktab ta'limiga qaraganda kam o'rganilgan. Shuning uchun, maktabgacha ta'lim tizimida ham maktab ta'limi singari qoidalarni belgilash hamda tartibga solishni talab etadi. Bu kabi talablarni belgilash soha pedagoglarini himoya qilish, faoliyat jarayonidagi ziddiyatli vaziyatlarni kelib chiqishini oldini olish, pedagoglar ishiga sub'ektiv baho berilishidan himoyalash, ta'limiy jarayonda pedagogik etikaning buzilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida ishlab chiqiladi. Mas'ul shaxslar tomonidan olib boriladigan nazoratni tashkil etish doimo rejali amalga oshirilishini talab etadi. Uni shunday tashkil etish kerakki, u pedagoglarda ta'limiy mashg'ulotlar jarayonida ijobiy tashabbus, o'z ishiga mas'uliyat, tarbiyalanuvchilarga nisbatan ijobiy munosabat hamda ta'limiy jarayonga bo'lgan javobgarlik hissini uyg'otsin. Shundagina biz, samarali metodik ishni olib borish orqali, sifatli ta'lim jarayonini ta'minlagan bo'lamiz. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida uslubiy ishni asosiy boshqaruv funksiyasi sifatida qaralganda uni amalga oshirganda pedagogik tahlil, rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tuzatish va tartibga solish nazarda tutiladi. Metodik ishlar samarsi pedagoglar faoliyatini baholash bilan bog'liq. So'nggi yillarda ta'lim tizimida ta'lim sifatini miqdoriy baholashning nazariy asoslarini yaratish bilan bog'liq bo'lgan ilmiy va amaliyot sohasi-kvalimetriya yuzaga keldi. Shu jumladan, ta'lim jarayoni ishtirokchilari faoliyatini baholashda olingan ma'lumotlar miqdoriy me'yorlarga nisbatan baholanadi.

Ta'limiy metodlar orqali ta'lim samaradorligini oshirish

1. **Interfaol metodlar**-Interfaol metodlar bolalarni faol ishtirokchi sifatida jarayonga jalb etadi. "Savol-javob", "Aqliy hujum", "Guruhli ish", "Rol o'ynash" kabi usullar bolalarning muloqot, fikrlash va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

2. **O'yin texnologiyasi**-Maktabgacha yoshda o'yin bolalar uchun eng tabiiy faoliyat hisoblanadi. Didaktik, harakatli, rolli o'yinlar orqali bola bilimni qiziqish bilan o'zlashtiradi. O'yin metodlari bolalarda tasavvur, xotira, nutq va ijodkorlikni rivojlantiradi.

3. **Muammoli ta'lim metodi**-Muammoli vaziyat yaratish orqali bolalarda mustaqil fikrlash va izlanish ko'nikmasi shakllanadi. Masalan, "Nega muz eriydi?", "Qanday qilib suv tozalanadi?" kabi savollar bolani fikrlashga undaydi.

4. **STEAM yondashuvi**-STEAM yondashuvi fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika elementlarini integratsiya qiladi. Bu yondashuv bolalarda mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish, ijodkorlik va tajribakorlikni rivojlantiradi.

5. **Kuzatish va tajriba metodi**-Tabiat hodisalarini kuzatish, oddiy tajribalar o'tkazish orqali bolalarda ilmiy tasavvur va amaliy ko'nikmalar shakllanadi. Masalan, urug' ekish va unishini kuzatish, suv bug'lanishi jarayonini ko'rish bolalar uchun qiziqarli va foydali hisoblanadi.

6. Multimedia va AKTdan foydalanish-Video, audio ertaklar, interaktiv slaydlar, elektron o'yinlar ta'lim jarayonini jonlantiradi va bolalarda qiziqishni oshiradi. Bu esa ta'limning samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dastlabki bilim, ko'nikma, ijtimoiy moslashuv, muloqot madaniyati va mustaqil fikrlash asoslari aynan MTTda shakllanadi. Shu sababli, ta'lim jarayonining samaradorligi, avvalo, tarbiyachi va rahbar xodimlarning kasbiy tayyorgarligi hamda metodik mahoratiga bog'liqdir. Kasbiy ta'limni rivojlantirish orqali tarbiyachilarning pedagogik kompetensiyasi oshadi, ta'lim-tarbiya jarayoni innovatsion metodlar bilan boyitiladi hamda bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotida kasbiy ta'limni rivojlantirish va ta'limiy metodlar orqali ta'lim samaradorligini oshirish ta'lim sifatini ta'minlashning muhim omillaridan biridir. Pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, metodik ishlarni tizimli tashkil etish, innovatsion metodlarni amaliyotga joriy etish hamda AKTdan samarali foydalanish orqali bolalarning har tomonlama rivojlanishiga erishish mumkin. Shuningdek, rahbar va metodistlarning tashabbuskorligi, monitoring va rag'batlantirish tizimi pedagogik jarayon samaradorligini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi. **“Ta'lim to'g'risida”gi Qonun.** — Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi. **“Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi Qonun.** — Toshkent, 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. **PQ–3955-son Qaror “Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni**
4. Ishmuhamedov R. **Ta'limda interfaol metodlar.** O'quv-uslubiy qo'llanma. — Toshkent, 2014.
5. Jo'rayev R., To'xtaboyev M. **Pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar.** — Toshkent, 2015.
6. Karimova S. **Pedagogik mahorat va kasbiy kompetensiya.** — Toshkent, 2018.